



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


2022- YILNING
YANVAR-IYUI OYLARIDA



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdag'i vositachilikga qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qildi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5618,1** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1025,8** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,3 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar-iyul

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mldr. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	5618,1	115,3
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	301,7	117,0
Moliyaviy xizmatlar	1 300,0	130,0
Transport xizmatlari	1 484,5	130,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	701,9	103,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	125,0	103,3
Savdo xizmatlari	1 223,8	103,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	130,9	108,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	288,8	79,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	73,9	108,9
Ijara xizmatlari	105,3	109,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	162,7	109,1
Shaxsiy xizmatlar	209,8	105,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	58,7	103,7
Boshqa xizmatlar	153,0	110,1

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-iyul oylarida bu xizmatlarning ulushi **26,4** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**23,2** %), savdo xizmatlari (**21,8** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,4** %) bo'yicha qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo'limgan o'sish qayd etildi, ularning ulushi **1,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari umumiylajmiy hajmning **24,1 %** ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,2 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2022- yil yanvar-iyul oylarida yuqori o'sish transport xizmatlarida (**30,1 %**), moliya xizmatlarida (**30,0 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**17,0 %**), boshqa xizmatlarda (**10,1 %**), Ijara xizmatlari (**9,8 %**), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (**9,1 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**8,9 %**) qayd etildi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (**20,6 %** ga) pasayishi qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 84,0 %. Yashash va ovqatlanish xizmatlario'sish sur'atlarida pasayish kuzatilgan – 3,5 %.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **21,8 %** ni tashkil etib, bu **1223,8 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **1058,0 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmning **23,0 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i, **75,9 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **16,3 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**7,8 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi (2022- yilning yanvar-iyul oylarida)



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-iyul oylarida)

2022- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1300,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **985,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiylar xizmatlar hajmidagi ulushi **23,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **21,5 %** ni ashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **314,8** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **30,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati **132,5 %** ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul

Moliyaviy xizmatlar umumi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **83,5 %** ni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **14,2 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumi hajmning **2,3 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-iyul oylarida)

**Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi
moliyaviy
faoliyat**



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar umumi hajmining **85,3 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **12,2 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,5 %**.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekomunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y. yanvar-iyul

255,4

115,5

5,6



2022- y. yanvar-iyul

301,7

117,0

5,4

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **93,6 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2021-y. yanvar-iyul



2022-y. yanvar-iyul



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**



Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **93,3 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul



Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2022- y. yanvar-iyul

79,4 %

O'tgan yilga
nisbatan o'sish
sur'atlari

288,8
mIrd. so'm

5,1 %

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

184,0 %

2021- y. yanvar-iyul

337,2
mIrd. so'm

7,3 %

Umumiyl
hajmdagi ulushi

2022- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **288,8** mIrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyl hajmining **5,1 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **79,4 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar-iyul



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatolo-giya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetolo-giya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2021- y.
Yanvar-iyul**



**2022- y.
Yanvar-iyul**

Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

100,8

Xizmatlar
hajmi, mlrd.
so'm

96,5

O'sish sur'ati, % da

2,2

Xizmatlar jami
hajmidagi ulushi,
% da

**2021- y.
Yanvar-iyul**

125,0

103,3

2,2

**2022- y.
Yanvar-iyul**


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul

2021-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **24,2** mlrd. so'mga ko'paydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

**2021- y.
yanvar-
iyul**



**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

**2022- y.
yanvar-
iyul**



**Yashash bo'yicha
xizmatlar**

2022- yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **89,0** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **89,3** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5618,1	115,3	121,1
Nukus sh.	2272,1	109,2	125,3
tumanlar:			
Amudaryo	291,6	116,1	120,8
Beruniy	289,6	113,2	118,4
Bo'zatov	30,1	115,2	136,5
Qorao'zak	100,6	118,3	121,3
Kegeyli	104,5	112,2	125,6
Qo'ng'irot	844,0	145,3	110,7
Qonliko'l	86,2	123,9	120,9
Mo'ynoq	72,7	117,2	121,1
Nukus t.	119,9	112,9	118,6
Taxiatosh	125,8	110,0	110,2
Taxtako'pir	88,4	118,1	123,8
To'rtko'l	447,0	110,4	120,1
Xo'jayli	241,1	110,7	119,8
Chimboy	171,0	114,3	122,4
Shumanay	79,1	112,5	122,7
Ellikqal'a	254,4	110,2	119,6

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-iyul oylarida)**



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumanida – 0,5 % (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 0,4 %) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-iyul



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

2873,1
ming so'm



Hajmning o'sishi

491,0
ming so'mga

113,7 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2873,1** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2382,0** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **119,6 %** da qayd etilgan.